

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

2-son
(Maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

X. Gulyamova, U. Shermatova	79	Ta'lim texnologiyalari asosida o'quvchilarni xalqaro "pirls" nazoratiga tayyorlash
A. Karimjonov, O. Jabborova	83	Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida "tarbiya" fanini o'qitishning zamonaviy texnologiyasi
Z. Shanasirova	86	Bolalarni maktabga tayyorlashda multimedia vositalaridan foydalanish afzalliklari



MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

R. Nosirova, N. Rustambekova	89	O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amaliyotga joriy etish texnologiyalari
-------------------------------------	-----------	---



JISMONIY TARBIYA VA SPORT

E. Soatov	93	Sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda ularning psixologik holatini o'rganish
F. Abdullayev B. Abdullayeva	97	Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishida jismoniy mashqlarning o'rni
A. Jo'raboyev	101	Jismoniy tarbiya va sportning bola tafakkuriga ta'siri
E. Hurramov	104	Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga umumiy tasnif



MAKTABGACHA TA'LIM

N. Maripova	107	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga noan'anaviy applikasiya yasash usullarini o'rgatish
A. Sanakulova	111	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirish bo'yicha ayrim takliflar
Z. Teshabayeva	114	Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish o'yin faoliyati shakllarini tashkil etish
L. Narimbayeva	117	Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida teatrning roli
N. Urinova, A. Abdullayev	121	Ilk yoshdagi bolalarning rivojlanishida nutqning ahamiyati
Z. Nasirova	124	Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda tilning fonetik, leksik va grammatik aspektlari
S. Xolmatova	128	Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning matematik tafakkurini shakllantirish omillari



ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Z. Narimbetova	131	Matematika darslarida o'quvchilar ijodkorligini rivojlantirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'rni
-----------------------	------------	--



ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Ш. Мардонов, У. Закирова	134	Об основных понятиях педагогических ценностей
Ю. Кушназарова	138	Теоретические исследования в математике



ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ

Р. Гимазутдинов	141	Знания по физической культуре – основа физкультурного образования дошкольников
------------------------	------------	--

Alijon KARIMJONOV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta‘lim”
kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Onaxon JABBOROVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti
“Boshlang‘ich ta‘lim” kafedra mudiri

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARI BOSHLANG‘ICH SINFLARIDA “TARBIYA” FANINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Maqolada ilk bor amalga kiritilgan “Tarbiya” fani mazmuni va uning boshlang‘ich ta‘limdagi xususiyatlari tahlil etilgan, tegishli metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Tarbiya, nazariya, amaliyot, bilim, boshlang‘ich, fan, tushuncha, ko‘nikma, malaka.

В статье интерпретировано значение нового предмета “Воспитания” и дана методические рекомендации по обобщению данного предмета в начальной образовании.

Ключевые слова. Воспитания, теория, практика, знание, начальное, наука, значение, навыка, умение, значение.

The article interprets the meaning of the new subject “Education” and provides guidelines for generalizing this subject in primary education.

Key words. Education, theory, practice, knowledge, primary, science, meaning, skill, meaning.


Tarbiya – insonga butun hayoti davomida zarur hisoblanadigan hodisadir. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘lim tizimida “Tarbiya” fanini o‘qitish va uning vositasida yosh avlodni tarbiyalash tashabbusini ilgari surdi. Bu muhim tashabbus jamiyat tomonidan ommaviy ravishda qo‘llab-quvvatlandi. Chunki asrlar davomida ta‘lim tizimi va “Pedagogika” fanining tarkibiy qismi bo‘lib kelgan tarbiya hodisasi maxsus fanga aylandi. Mazkur yangi davrning muhim ko‘rsatkichlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2020-yil 6-iyul kuni 422-sonli “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror qabul qilindi. Qaror bilan quyidagilar hal qilindi:

- “Tarbiya” fani mazmuni belgilandi va yangi fan ta‘sis etildi;
- 2020/2021 o‘quv yilidan 1-9-sinflarda va 2021/2022 o‘quv yilidan 10-11-sinflarda “Tarbiya” fanini ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich ijro etish belgilandi;
- umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida “Tarbiya” fanini o‘qitish uchun kadrlar tayyorlash (2021-2022 o‘quv yilidan boshlab) vazifasini hal qilish topshirildi;
- umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari uchun “Tarbiya” fani mazmuni masalasi

qiziqtiradi va bu borada tadqiqotlar boshlanganini qayd etib o'tish joiz.

Qarorda belgilanganidek, "Tarbiya" fani mazmuni masalasida quyidagilarga e'tibor berish kerak (1-chizma):



Bu masala bo'lajak pedagoglar va amaliy faoliyatdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan chuqur idrok etilishi lozim. Biz ushbu o'quv qo'llanmada boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini klaster usulida o'qitish muammosi tahlilini nazarda tutganimiz uchun mazkur fanning boshlang'ich sinflardagi mazmuniga diqqatingizni tortamiz:

E'tibor berilsa, Qarorda quyidagilarga urg'u berilgan:

1. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan "Tarbiya" fani amalda bo'lib kelgan. "Odobnoma" va "Vatan tuyg'usi" predmetlarining mazmunini o'zida singdirgan. Shu sababli, bu ikki fanning maqsad va vazifalari yangicha asosda "Tarbiya" fani mazmuniga qabul qilinadi.

2. "O'quvchilar ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni singdirish". Bunda uch masalaga diqqat qilish kerak:

a) Ong – o'quvchilarning aqliy, axloqiy va estetik tuyg'ularini to'g'ri shakllantirish;
b) Umuminsoniy qadriyatlar – ezgulik va yovuzlikni farqlash mehnatsevarlik va bag'rikenglikni o'quvchilar ongiga singdirish;

v) Yuksak ma'naviyat – ruhiy yetuklik, e'tiqod va faollikni o'quvchilarda tarkib toptirish.

3. "O'quvchilarni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash". Bunda ham uch masala e'tiborga loyiq:

a) tarbiya – o'quvchilarni shaxs sifatida shakllantirish;

b) vatanparvarlik – o'quvchilarni tarbiyalashning birinchi tamoyili;

v) insonparvarlik – o'quvchilarni tarbiyalashning ikkinchi tamoyili.

Shuningdek, mazkur Qarorda "Tarbiya" fanining prinsipial yangi metodologiyasini ishlab chiqish vazifasi qo'yilgan. Biz bu metodologiyani quyidagicha tasavvur qilamiz:

-
- tarbiya jarayonini majburlash yoki jazolash tarzida emas, balki rag'batlantirish va yo'naltirish yo'sinida tashkil etish;
 - tarbiyaga oid ajdodlar tarbiyasini yosh avlodga uzatish;
 - tarbiyalanuvchilarni madaniyat va ma'naviyat olamiga olib kirish;
 - shaxsning individual xususiyatlarini talab darajasida rivojlantirish;
 - tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash.

Bunday yondashuv o'z navbatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ham zimmasiga muayyan vazifalarni yuklaydi. Chunonchi:

- tarbiya asoslarini o'zlashtirish;
- tarbiya jarayonida faol bo'lish;
- tarbiyaviy ko'nikmalarga amal qilish.

Aynan mana shu yondashuv asosida ushbu fanning yangi metodologik asoslari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan "Tarbiya" fanining metodlarini quyidagilar tashkil qiladi: yo'naltirish, rag'batlantirish, baholash.

Bu metodlar jazolash yoki majburlash metodlaridan mazmun-mohiyati bilan farq qilib, ularda tarbiyalanuvchining ongi, dunyoqarashi va axloqini erkinlik prinsiplariga asosan shakllantirish ilk rejada turadi. Shu sababli bundan keyin boshlang'ich sinf o'qituvchilari va murabbiylarining individual metodlarga, texnologiya va vositalarga ega bo'lishi rag'batlantirib borish nazarda tutilmoqda. Unga ko'ra, o'qituvchi va murabbiylarning mehnat faoliyati samarasi tarbiyalanuvchilarning tarbiyalanganlik darajasiga ko'ra baholanadi va mehnatga haq to'lash ham shunga asosan amalga oshiriladi.

Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitishning maqbul va ma'qul tajribasini shakllantirib borish taqozo etiladi. Buning uchun talabalar, amaliy faoliyatdagi o'qituvchilar va ilmiy pedagoglarning birgalikdagi hamkorligiga ehtiyoj mavjud. Umuman mazkur fanni o'qitishning mazmuni, vositalari va yo'nalishlari yangidan kashf etilishi, uning tadqiqot obyektlari belgilanishi, fanlar orasidagi o'rnini belgilab olish ehtiyoji mavjudligini eslatib o'tish joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi yangi Qonuni. // [www. Ziynet.uz](http://www.ziynet.uz). 2020-yil 24-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-sonli Qarori. // [www. Ziynet.uz](http://www.ziynet.uz). 2020-yil 7-iyul.
3. Кузмина Н. Способность, одарённость и талант учителя. – Л. 1995.